INGLIZ PREDLOGLI KONSTRUKSIYALARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA SEMANTIK-KOGNITIV, FUNKSIONAL-PRAGMATIK VA MILLIY-MADANIY MOSLIK MASALALARI

Xo‘janazarova Muxlisa Anvar qizi
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,
Lingvistika: ingliz tili yo‘nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23698852

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilidagi predlogli konstruksiyalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan semantik-kognitiv, funksional-pragmatik va milliy-madaniy moslik muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda predloglar alohida grammatik birlik sifatida emas, balki matndagi makon, zamon, sabab, vosita, holat, mavzu, baho va kommunikativ maqsadni ifodalovchi murakkab munosabat belgisi sifatida qaraladi. Badiiy, ilmiy va publitsistik matnlardan olingan misollar asosida inglizcha in, on, at, by, with, for, under, beyond, from kabi predloglarning o‘zbek tilida kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar, ravishlashgan birliklar, izohlovchi sintaktik qurilmalar va kontekstual transformatsiyalar orqali berilishi ko‘rsatildi. Maqolada inglizcha predlogni o‘zbekchaga tarjima qilishda “predlogga predlog” tamoyili emas, balki “munosabatga mos o‘zbekcha ifoda” tamoyili yetakchi bo‘lishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: predlog, funksional ekvivalentlik, pragmatik moslik, kognitiv model, obraz-sxema, milliy-madaniy moslashtirish.

Abstract. This article examines semantic-cognitive, functional-pragmatic, and national-cultural issues in translating English prepositional constructions into Uzbek. Prepositions are analyzed not merely as grammatical units, but as complex markers of spatial, temporal, causal, instrumental, evaluative, conceptual, and communicative relations. Based on examples from literary, scientific, and publicistic texts, the study shows that English prepositions such as in, on, at, by, with, for, under, beyond, and from are rendered into Uzbek through case suffixes, postpositions, adverbial units, explanatory syntactic constructions, and contextual transformations. The analysis proves that the translation of English prepositional constructions should not rely on the principle of “preposition-to-preposition” equivalence. Instead, the leading principle should be the reproduction of the same semantic relation and pragmatic function by means of natural Uzbek linguistic forms. The findings suggest that adequate translation requires attention to the cognitive model of the preposition, the genre of the text, the author’s communicative intention, and the national-cultural norms of the target language.

Keywords: preposition, functional equivalence, pragmatic equivalence, cognitive model, image schema, semantic transformation, national-cultural adaptation, prepositional construction.

KIRISH.

Ingliz tilidagi predloglar tarjima jarayonida eng ko‘p muammo tug‘diradigan birliklardan biridir. Buning sababi shundaki, ingliz tilida predloglar alohida grammatik birlik sifatida faol qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa ayni munosabatlar ko‘pincha kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar, so‘z tartibi yoki sintaktik transformatsiya orqali ifodalanadi. Masalan, inglizcha in the room, on the table, at the meeting, by train, under pressure kabi birliklarning barchasida predlog mavjud bo‘lsa-da, ularning o‘zbekcha muqobillari bir xil emas, xonada, stol ustida, yig‘ilishda, poyezdda, bosim ostida. Ko‘rinadiki, predlog shaklan bir xil

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

grammatik sinfga mansub bo‘lsa ham, tarjimada uning kontekstdagi semantik vazifasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu muammo, ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillarining tipologik farqi bilan bog‘liq. Ingliz tili analitik xususiyatga ega bo‘lib, predloglar gapdagi munosabatlarni mustaqil so‘z sifatida ifodalaydi. O‘zbek tili esa agglutinativ til bo‘lgani sababli bunday munosabatlarni ko‘pincha qo‘shimcha va ko‘makchilar orqali beradi. Shuning uchun ingliz predloglarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda bevosita grammatik moslik emas, balki funksional-semantik moslik ustuvor bo‘ladi. Sobirova va Abdullayeva ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada predlog ekvivalentini kontekst asosida tanlash zarurligini, noto‘g‘ri tanlov esa semantik noaniqlik va sintaktik g‘alizlikka olib kelishini ta’kidlaydi [1:187-190].

Predloglarning murakkabligi ularning faqat grammatik vazifasi bilan emas, kognitiv tabiati bilan ham belgilanadi. Kognitiv tilshunoslikda predloglar insonning makonni idrok etish tajribasi asosida shakllangan birliklar sifatida qaraladi. In ichki makon, on sath, under pastlik yoki ta’sir doirasi, beyond chegaradan o‘tish, at nuqtaviy joy yoki holat markazi kabi obraz-sxemalar bilan bog‘liq. Biroq bu makonga xos sxemalar matnda ko‘pincha mavhum ma’noga ko‘chadi. Masalan, in doubt - shubhada, on the basis of - asosida, under control - nazorat ostida, beyond expression - ifodalab bo‘lmas darajada. Hung, Vien va Vu ingliz predloglarini o‘rganishda obraz-sxema va kognitiv yondashuv an’anaviy yodlashga qaraganda samaraliroq ekanini ko‘rsatadi [2:327-346]. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tilidagi predlogli konstruksiyalarining o‘zbek tiliga tarjimasida semantik-kognitiv moslik, funksional-pragmatik ekvivalentlik va milliy-madaniy moslashtirish omillarini aniqlashdan iborat. Maqolada predloglar badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar misolida ko‘rib chiqilgan. Bunda J. Ostin, W. Shekspir, Ch. Darvin, A. Eynshteyn, A. Linkoln, F.D. Ruzvelt nutqlari va NASA ilmiy-ommabop matnlaridan olingan misollar asosida predlogli birliklarning tarjima modellariga e’tibor qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tadqiqot materiali sifatida uch turdagi matnlar tanlandi, badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar. Badiiy matnlar sifatida Jeyn Ostinning Pride and Prejudice, Shekspirning Hamlet, Sharlotta Brontening Jane Eyre, Mary Shelleyning Frankenshtein asarlaridan foydalanildi. Ilmiy matnlar sifatida Charles Darvinning On the Origin of Species, Albert Eynshteynning On the Electrodynamics of Moving Bodies maqolasi va NASAning James Webb Space Telescope haqidagi ilmiy-ommabop ma’lumoti tahlil qilindi. Publitsistik-siyosiy matnlar sifatida Abraham Linkolnning Gettysburg Address hamda Franklin D. Ruzveltning Day of Infamy nutqi tanlandi. Ushbu manbalar predlogli konstruksiyalarning turli uslublarda qanday vazifa bajarishini ko‘rsatish imkonini beradi.

Metodologik jihatdan maqolada lingvokognitiv, funksional-semantik, pragmatik va qiyosiy-tarjimaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Lingvokognitiv tahlilda predlogning obraz-sxemasi, ya’ni makonni ifoalovchi yoki mavhum munosabat modeli aniqlandi. Funksional-semantik tahlilda predlogli birlikning gapdagi vazifasi - makon, zamon, sabab, vosita, asos, mavzu, holat yoki baho munosabatini ifodalashi belgilanadi. Pragmatik tahlilda esa predlogli konstruksiyaning matndagi kommunikativ vazifasi, muallif niyati, uslubiy yuki va o‘quvchiga ta’siri hisobga olinadi. Qiyosiy-tarjimaviy tahlilda inglizcha predlogli birlikning o‘zbek tilida qanday grammatik va uslubiy vosita bilan berilishi izohlanadi. Tadqiqotda predlogli birliklar izolyatsiyada emas, balki butun gap va matn konteksti bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Sun predlog tarjimasidagi xatolarni aniqlashda gapning umumiy tuzilishi, leksik tanlov va predlogli birikmaning sintaktik bog‘lanish nuqtasini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [3:207-210]. Shu jihatdan maqolada predlogning lug‘aviy muqobili emas, uning matndagi funksional qiymati asosiy mezon sifatida olindi. Masalan, by predlogi bir kontekstda tomonidan, boshqa kontekstda orqali, yana boshqa holatda yonida yoki har imkon topganda tarzida tarjima qilinishi mumkin.

NATIJALAR.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilia predlogli konstruksiyalarining o‘zbek tiliga tarjimasida bir nechta asosiy model faol ishlaydi. Birinchi model bu lokativ-makon modeli bo‘lib modelda predlog obyektlar o‘rtasidagi joylashuv munosabatini bildiradi. Masalan, Sharlot Brontening Jane Eyre romanidagi “stand by the door” birikmasida by predlogi vosita emas, eshik yonida joylashuvni bildiradi. O‘zbek tilida bu birlik “eshik yonida tur” tarzida beriladi [4]. Bu misolda predlogning grammatik shakli emas, uning fazoviy yaqinlik vazifasi tarjima qilinadi. Ikkinchi model ravishli-transformatsion modeli bo‘lib unda predlogli birlik o‘zbek tilida predlogsiz ravish yoki holat bildiruvchi birlik orqali beriladi. Jeyn Ostinning Pride and Prejudice romanidagi “In vain have I struggled” jumlasida in vain birikmasi makonga xos “ichida” ma’nosini bildirmaydi, u natijasizlik, behuda urinish va ichki ruhiy qarshilikni ifodalaydi. O‘zbek tilida bu jumla “Bekorga kurashibman” yoki “Behuda urinibman” tarzida beriladi [5]. Bu yerda in predlogi mustaqil tarjima qilinmaydi, balki butun birikma ravishli holat sifatida o‘zbekchalashtiriladi.

Uchinchi model daraja-kuchaytirish modelidir. Jeyn Ostin romanidagi “beyond expression” birikmasi o‘zbek tilida “so‘z bilan ifodalab bo‘lmas darajada” tarzida tarjima qilinadi [5]. Bu yerda beyond predlogi real makondagi “narida” ma’nosini emas, ifoda imkoniyatidan oshib ketgan kuchli hissiy holatni bildiradi. O‘zbek tilida mazkur ma’no birgina ko‘makchi bilan emas, izohlovchi sintaktik qurilma orqali ochiladi. Bu holat badiiy matnda predlogli birlikning emotsional-estetik yukini saqlash zarurligini ko‘rsatadi. To‘rtinchi model -ichki-idrokiy makon modeli. Shekspirning Hamlet tragediyasidagi “in my mind’s eye” birikmasida in predlogi real ichki makonni emas, xotira va tasavvur maydonini bildiradi. O‘zbek tilida bu birlik “xayolimda”, “ko‘z o‘ngimda” yoki “tasavvurimda” tarzida berilishi mumkin [6]. Bu yerda milliy-madaniy moslashtirish ham muhim: “aqlimning ko‘zida” kabi so‘zma-so‘z tarjima o‘zbek tilida tabiiy emas, “ko‘z o‘ngimda gavdalanmoq” esa o‘zbek nutqiy an’anasiga mos keladi.

Beshinchi model - vosita-usul modeli. Charls Darvinning On the Origin of Species asari sarlavhasidagi “By means of Natural Selection” birikmasi o‘zbek tilida “Tabiiy tanlanish vositasida” tarzida beriladi [7]. Bu yerda by means of murakkab predlogli birlik bo‘lib, jarayon qanday mexanizm yordamida amalga oshishini bildiradi. Uni “tomonidan” deb tarjima qilish xato bo‘ladi, chunki natural selection bajaruvchi shaxs emas, evolyutsion mexanizmdir. Ilmiy uslubda vositasida shakli aniq, ixcham va terminologik jihatdan mos ekvivalent hisoblanadi. Oltinchi model - jarayon-lokativ va maqsad-funksional model. Darwin sarlavhasidagi “in the struggle for life” birikmasida in predlogi jarayon ichida bo‘lishni, for esa hayotiy maqsad va manfaatni bildiradi. O‘zbek tilida bu birlik “hayot uchun kurashda” tarzida beriladi [7]. Bunda in - da, for - uchun vositasi bilan ifodalanadi. Ammo asosiy masala grammatik almashtirish emas, balki ilmiy tushunchaning o‘zbek tilida ixcham va barqaror berilishidir.

Yettinchi model - asos-referensial model. Eynshteynning On the Electrodynamics of Moving Bodies maqolasidagi “on the basis of the Maxwellian theory” birikmasida on predlogi jismoniy sathni emas, nazariy tayanchni bildiradi. O‘zbek tilida bu birlik “Maksvell nazariyasi asosida” deb beriladi [8]. Bu misolda inglizcha on predlogining “ustida” ma’nosi mavhum nazariy asos modeliga ko‘chgan. Ilmiy tarjimada bunday birliklarni so‘zma-so‘z berish mazmunni xiralashtiradi. Sakkizinchi model institutsional yoki siyosiy-pragmatik model. Franklin D. Ruzvelt nutqidagi “attacked by naval and air forces” birikmasida by predlogi passiv konstruksiyada bajaruvchi kuchni bildiradi. O‘zbek tilida bu birlik “dengiz va havo kuchlari tomonidan hujumga uchradi” tarzida beriladi [9]. Publitsistik-siyosiy nutqda by predlogining tomonidan modeli voqea mas’uliyatini aniq ko‘rsatadi. Bu yerda predlog nafaqat grammatik, balki siyosiy-pragmatik vazifa bajaradi.

To‘qqizinchi model g‘oyaviy-asos modeli. Abraham Linkolnning Gettysburg Address nutqidagi “conceived in liberty” birikmasi o‘zbek tilida “ozodlik g‘oyasi asosida vujudga kelgan” tarzida

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

moslashtiriladi [10]. Bu yerda in predlogini “ozodlik ichida” deb berish mumkin emas. Chunki mazkur birlik siyosiy g‘oyaviy asosni bildiradi. O‘zbek tarjimasida “g‘oyasi asosida” shakli manba matndagi tarixiy-publitsistik ruhni saqlaydi. O‘ninchi model bag‘ishlov va xotira modeli. Lincoln nutqidagi “for those who here gave their lives” mazmuni o‘zbek tilida “shu yerda jonini fido qilganlar xotirasi uchun” tarzida berilishi mumkin [10]. Bu yerda for oddiy maqsadni emas, hurmat, xotira va bag‘ishlov pragmatikasini ifodalaydi. O‘zbek milliy-madaniy nutqida xotirasi uchun, sharafiga, hurmatiga kabi birliklar bunday vaziyatga mos keladi. Demak, predlogli birlik tarjimasida madaniy moslashtirish zarur.

MUHOKAMA.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz predlogli konstruksiyalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda asosiy muammo predlogning ko‘p ma’noliligi emas, balki uning matndagi vazifasini to‘g‘ri aniqlashdir. Bir xil predlog turli matn turlarida butunlay boshqa funksional-pragmatik yuk olishi mumkin. In predlogi badiiy matnda ichki kechinma yoki tasavvur maydonini bildiradi. Masalan, in my mind’s eye - ko‘z o‘ngimda. Ilmiy matnda u konseptual sohani bildiradi, in the history of our Universe - Koinot tarixida. Publitsistik matnda esa g‘oyaviy asosni bildirishi mumkin, in liberty - ozodlik g‘oyasi asosida. Demak, in predlogi uchun yagona o‘zbekcha muqobil belgilash ilmiy jihatdan noto‘g‘ri bo‘ladi.

Xuddi shunday, by predlogi ham kontekstga qarab turli modelga ega bo‘ladi. Bronte romanidagi by the door - eshik yonida, Shilley asaridagi by every opportunity - har imkon topganda, Darwin sarlavhasidagi by means of – vositasida, Ruzvelt nutqidagi by naval and air forces - tomonidan. Bu holat predlog tarjimasida fe’l, ot, matn turi, uslubiy vazifa va pragmatik maqsad birgalikda hisobga olinishi kerakligini ko‘rsatadi. Badiiy matnlarda predlogli birliklar obrazlilikni kuchaytiradi. Beyond expression yoki in vain kabi birliklar oddiy grammatik munosabat emas, balki qahramonning ichki holati va emotsional zo‘riqishini bildiradi. Shuning uchun badiiy tarjimada so‘zma-so‘z moslikdan ko‘ra obrazli ekvivalent muhimroq. Tarjimon predlogning grammatik shaklini emas, uning estetik ta’sirini qayta yaratishi kerak. Ilmiy matnlarda esa predlogli birliklar tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy aloqani belgilaydi. By means of, on the basis of, between, in relation to kabi birliklar ilmiy fikrning strukturaviy tayanchidir. Ularni noto‘g‘ri tarjima qilish faqat uslubiy xatoga emas, ilmiy mazmunning buzilishiga ham olib keladi. Masalan, on the basis ofni ustida deb berish nazariy asos ma’nosini yo‘qotadi, by means of ni tomonidan deb tarjima qilish esa vosita va bajaruvchini chalkashtiradi. Publitsistik matnlarda predlogli konstruksiyalar siyosiy baho va ijtimoiy ta’sirni ifodalaydi. At peace with that Nation birikmasi Roosevelt nutqida diplomatik holatni bildiradi; uni o‘zbek tilida “u davlat bilan tinch munosabatda edi” tarzida berish maqsadga muvofiq.[14] Bu yerda at holatni, with davlatlararo munosabatni bildiradi. O‘zbek tarjimasida rasmiy-siyosiy ohang saqlanishi zarur, aks holda nutqning pragmatik kuchi zaiflashadi.

Milliy-madaniy moslashtirish predlog tarjimasida ayniqsa muhim. Inglizcha for those who gave their lives mazmuni o‘zbekchada oddiy “ular uchun” emas, “jonini fido qilganlar xotirasi uchun” tarzida berilganda, o‘zbek o‘quvchisi uchun marhumlarga hurmat, tarixiy xotira va fidoyilik ma’nosi kuchliroq ochiladi. Bunday moslashtirish tarjimaning “erkinlashtirilishi” emas, balki funksional-pragmatik ekvivalentlikni ta’minlashdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi predlogli konstruksiyalarning o‘zbek tiliga tarjimasida uch asosiy mezon muhimligini ko‘rsatdi. Birinchisi semantik-kognitiv moslik bu tarjimon predlogning asosiy makon yoki mavhum obraz-sxemasini aniqlashi kerak. Ikkinchisi funksional-pragmatik ekvivalentlikda predlogli birlik o‘zbek tilida ham manba matndagi kommunikativ vazifani bajarishi zarur. Uchinchisi milliy-madaniy moslashtirishda tarjima o‘zbek tilining tabiiy nutqiy qoliplari, uslubiy me’yorlari va madaniy tasavvurlariga mos bo‘lishi lozim. Maqolada tahlil qilingan misollar shuni tasdiqlaydiki, ingliz tilidagi predloglar o‘zbek tiliga har doim bitta doimiy ekvivalent bilan tarjima qilinmaydi. Uning ma’nosi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ba’zan kelishik qo‘shimchasiga, ba’zan ko‘makchiga, ba’zan ravishga, ba’zan izohlovchi sintaktik qurilmaga, ba’zan esa butun gap transformatsiyasiga ko‘chadi. Shu bois ingliz predloglarini tarjima qilishda “predlogga predlog” tamoyili emas, “munosabatga mos o‘zbekcha ifoda” tamoyili ustuvor bo‘lishi kerak. Umuman, ingliz predlogli konstruksiyalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasi grammatik muammo doirasidan chiqib, lingvokognitiv, funksional-semantik va pragmamadaniy tahlilni talab qiladigan murakkab tadqiqot obyektidir. Badiiy matnda obrazlilik, ilmiy matnda aniqlik, publitsistik matnda esa pragmatik ta’sirni saqlash tarjimaning asosiy sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sobirova G.A., Abdullayeva M. Ingliz-o‘zbek tarjimalarida predloglarning o‘rni // Worldly Knowledge. – 2024. 0- № 8. - B. 187-190.
2. Hung B.P., Vien T., Vu N.N. Applying Cognitive Linguistics to Teaching English Prepositions: A Quasi-Experimental Study // International Journal of Instruction. – 2018. - Vol. 11, № 3. - P. 327-346.
3. Sun Y. An Investigation into Automatic Translation of Prepositions in IT Technical Documentation from English to Chinese: PhD dissertation. – Dublin: Dublin City University, 2010. - P. 207-210.
4. Brontë Ch. Jane Eyre. Project Gutenberg nashri. Chapter I.
5. Austen J. Pride and Prejudice. Project Gutenberg nashri. Chapter 34.
6. Shakespeare W. Hamlet. Project Gutenberg nashri. Act I, Scene II.
7. Darwin Ch. On the Origin of Species.
8. Einstein A. On the Electrodynamics of Moving Bodies. English translation, 1920 edition.
9. Roosevelt F.D. Joint Address to Congress Leading to a Declaration of War Against Japan. National Archives transcript.
10. Lincoln A. Gettysburg Address.
11. Roosevelt F.D. Joint Address to Congress Leading to a Declaration of War Against Japan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.